

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy bankida

2025-yil "15" avgust da
ro'yxatga olingan

Ro'yxatga olish raqami 34

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki raisining
birinchi o'rinbosari



N.N. Saydullayev

“MIKROKREDITBANK”
aksiyadorlik-tijorat banki
USTAVI
(yangi tahrirda)

“TASDIQLANGAN”

“Mikrokreditbank” ATB
Aksiyadorlarining navbatdagi yillik
umumiy yig'ilishining
2025-yil 27-iyundagi
4-sonli bayonnomasi bilan

Kuzatuv kengashi raisi



B.E. Zaxidov

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

1. Umumiy qoidalar.....	3
2. Bankning yuridik maqomi, joylashgan yeri (pochta manzili)	3
3. Bank faoliyatining sohasi (asosiy yo'nalishlari) va maqsadi, Bank operatsiyalari.....	5
4. Bankning huquq va majburiyatlari.....	8
5. Bank ustav kapitalining miqdori, uni ko'paytirish va kamaytirish tartibi	10
6. Bank aksiyalari turlari, nominal qiymati va nisbati, Bankning e'lon qilingan aksiyalari	12
7. Bank aksiyalarini joylashtirish tartibi va shartlari	13
8. Bank aksiyadorlarining huquq va majburiyatlari.....	16
9. Bank sof foydasini va dividendlarni taqsimlash, shuningdek zararlarining o'rnini qoplash tartibi	20
10. Bankning o'z mablag'lari va kredit resurslari, Bank zaxira fondini va boshqa fondlarni tashkil etish	23
11. Bankning boshqaruv organlari	24
12. Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi	24
13. Bank Kuzatuv kengashi.....	29
14. Boshqaruv – Bankning ijroiya organi (ijro etuvchi organ).....	36
15. Bankning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish	41
16. Korporativ maslahatchi	42
17. Bank filiallari va boshqa alohida bo'linmalari, ularni tashkil etish tartibi	42
18. Bankni qayta tashkil etish va tugatish.....	43
19. Mijozlarning manfaatlarini ta'minlash.....	44
20. Ustavga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish.....	45

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki (keyingi o'rinlarda – Bank) tijorat tashkiloti bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 5-maydagi PF-3750-son "Mikrokreditbank" aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoniga asosan kichik biznes, xususiy tadbirkorlik hamda fermerlikni rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish yo'li bilan yangi ish o'rinlarini yaratish, ayniqsa qishloq joylarda aholi keng tabaqalarining mikromoliyaviy xizmatlardan bahramand bo'lishni ta'minlash uchun moliyaviy mablag'lar berishni yanada kengaytirish maqsadida tashkil etilgan.

1.2. Bank "Tadbirkor" aksiyadorlik tijorat banki negizida tashkil etilgan bo'lib, "Tadbirkor" aksiyadorlik tijorat bankining barcha huquq va majburiyatlari bo'yicha, shu jumladan, mulkiy, moliyaviy va boshqa majburiyatlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'lari saqlanishi hamda o'z vaqtida qaytarilishini kafolatlaydigan talabnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

1.3. Bankning davlat tilidagi firma nomi (kirill alifbosida):

to'liq nomi – **"Микрокредитбанк" акциядорлик-тижорат банки;**

qisqartirilgan nomi – **"Микрокредитбанк" АТБ.**

Bankning davlat tilidagi firma nomi (lotin alifbosida):

to'liq nomi – **"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki;**

qisqartirilgan nomi – **"Mikrokreditbank" ATB.**

Bankning rus tilidagi firma nomi:

to'liq nomi – **Акционерно-коммерческий банк "Микрокредитбанк";**

qisqartirilgan nomi – **АКБ "Микрокредитбанк".**

Bankning ingliz tilidagi firma nomi:

to'liq nomi – **Joint-Stock Commercial Bank "Microcreditbank";**

qisqartirilgan nomi – **JSCB "Microcreditbank".**

2. BANKNING YURIDIK MAQOMI, JOYLASHGAN YERI (ПОЧТА МАНЗИЛИ)

2.1. Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan yuridik shaxs hisoblanadi, o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga ega, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2.2. Bank o'zining firma nomidan foydalanishda mutlaq huquqqa ega. Bank o'zining davlat tilida to'liq yozilgan firma nomi va timsoli tasvirlangan yumaloq muhriga (muhurda qo'shimcha ravishda firma nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin), o'z nomi yozilgan shtampi va blankalariga, o'z timsoliga ega, shuningdek boshqa o'z belgi-alomatlariga ega bo'lishga haqlidir.

2.3. Bank O'zbekiston Respublikasining bank tizimiga kiradi va o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi va "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (keyingi o'rinlarda – Markaziy bank) normativ-huquqiy hujjatlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga hamda mazkur Ustavga amal qiladi.

2.4. Bank aksiyador yoki har qanday manfaatdor shaxsning talabiga binoan Ustavda belgilangan muddatlarda ularga Bank Ustavi, shu jumladan, unga doir o'zgartishlar va qo'shimchalar bilan tanishib chiqish imkoniyatini berishi va Bank aksiyadorining talabiga binoan Bankning amaldagi Ustavidan nusxa berishi shart.

2.5. Bank o'z majburiyatlari, shuningdek aholi omonatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol – mulki bilan javobgar.

2.6. Aksiyadorlar Bankning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydilar va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladilar.

2.7. Aksiyalar haqining hammasini to'lamagan aksiyadorlar Bank majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

2.8. Bank o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

2.9. Bankning mol-mulki unga mulk huquqi asosida tegishli bo'lib, Bank aksiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar, asosiy fondlar va aylanma mablag'lar, ko'char va ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar, olingan daromad, qonunchilik bilan ta'qiqlanmagan boshqa asoslarda olingan boshqa mol-mulklardan tashkil topadi.

2.10. Bank banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan cheklovlarni inobatga olgan holda, aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin.

2.11. Bank banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan cheklovlarni inobatga olgan holda, korxonalar, tashkilotlar va boshqa tijorat tuzilmalarini tashkil etishda va ularning xo'jalik faoliyatida o'z mablag'lari bilan, shu jumladan ulush qo'shish asosida qatnashish huquqiga ega.

2.12. Bank agar qonunchilikning talablariga zid kelmasa, o'zining umumiy manfaatlarini himoya qilish hamda birgalikdagi dasturlarni amalga oshirish maqsadida tuzilgan (tuziladigan) uyushmalar va boshqa birlashmalarga a'zo bo'lishi (ishtirok etishi) mumkin.

2.13. Bank moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq qarorlar qabul qilishda mustaqildir.

2.14. Bank faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi va o'z faoliyatini Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi.

2.15. Bankning joylashgan yeri (pochta manzili): O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shox ko'chasi, 4-uy. Pochta indeksi: 100047.

2.16. Bankning elektron pochta manzili: info@mkb.uz, rasmiy veb-sayti: www.mkbank.uz.

3. BANK FAOLIYATINING SOHASI (ASOSIY YO'NALISHLARI) VA MAQSADI, BANK OPERATSIYALARI

3.1. Bank o'z faoliyatini tijorat asosida amalga oshiradi va Bankning faoliyat maqsadi foyda olishdir.

3.2. Bank operatsiyalarni bajarish va pul mablag'larini saqlash uchun Markaziy bank muassasalarida vakillik hisobvaraqlariga ega. Bank boshqa banklarda vakillik hisobvaraqlarini ochishi mumkin.

3.3. Bank tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

pul mablag'larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;

to'lovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;

kreditlarni ularning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o'z nomidan o'zining mablag'lari hamda jalb etilgan mablag'lar hisobidan berish;

chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalarini amalga oshirish;

jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha pul mablag'larini va boshqa mol-mulkni ishonchli boshqarish;

inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko'rsatish;

uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;

pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash (faktoring) shartnomasiga asosan talab qilish huquqini olish yoki boshqa shaxsga berish;

qimmatli qog'ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

affinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas'ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo'lmagan) hisobvaraqlarini yuritish;

qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;

hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berish;

lizing berish;

qonunchilikda nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;

moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq maslahat xizmatlari ko'rsatish;

aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;

elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to'lash;

bank kartalarini berish va to'lovlarga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko'rsatish;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha xizmatlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bilan elektron axborot almashish orqali ko'rsatish;

banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq banklararo operatsiyalarni amalga oshirish.

Bank banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq boshqa moliyaviy operatsiyalarni ham amalga oshiradi.

3.4. Bank qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni qonunchilikda belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshirish huquqiga ega.

3.5. Bank bevosita ishlab chiqarish, savdo, sug'urta faoliyati hamda banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emas, bundan quyidagilar mustasno:

bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimlarida foydalaniladigan ixtisoslashtirilgan uskunani va unga doir dasturiy ta'minotni sotish yoki ijaraga berish;

o'z aktivlarini sotish;

chek daftarchalarini chiqarish, realizatsiya qilish va tarqatish;

sug'urta tashkilotlari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari nomidan sug'urta shartnomasi tuzilishini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish;

Bank o'zi muassis bo'lgan yuridik shaxslarga o'z mol-mulkini mulkiy ijara (arenda) shartnomasiga muvofiq ijaraga berish.

3.6. Bank yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini jalb qiladi va ularni depozit hisobvaraqlarida (talab qilib olinguncha, jamg'arma, muddatli va boshqa turdagi depozit hisobvaraqlarda) va boshqa majburiyatli hisobvaraqlarda saqlaydi.

3.7. Bankning mijozlar va boshqa kontragentlar bilan o'zaro munosabatlari shartnoma asosida tartibga solinadi.

3.8. Bank tomonidan kreditlar jismoniy va yuridik shaxslarga qaytarishlik, fiziklik va muddatlilik shartlari asosida beriladi. Kreditlarni berish qarz oluvchilar bilan tuziladigan kredit shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Kreditlash shartlari Bank tomonidan belgilanadi.

3.9. Bank tomonidan ajratiladigan kreditlar amaldagi qonunchilikka muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan ko'char va ko'chmas mulk garovi, kafolatlar, kafilliklar va bank amaliyotida qabul qilingan boshqa usullar bilan ta'minlanadi. Bank mazkur ta'minotlarning yetarililigini Markaziy bankning tavsiya va o'rnatgan tartiblarini hisobga olgan holda belgilaydi.

3.10. Bankning filiallari Bank Ustavida belgilangan barcha turdagi bank operatsiyalarini o'z nizomlari doirasida amalga oshiradilar va pullik xizmatlarni ko'rsatadilar.

Bank xizmatlari markazlari (ofislari), qoida tariqasida, bank hisobvaraqlarini ochish, omonatlar (depozitlar)ga pul mablag'larini jalb qilish, to'lovlar va xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirish, valyuta ayirboshlash, tijorat kreditlari, shu jumladan iste'mol va avtokredit, mikroqarzlarni berish kabi asosiy moliyaviy operatsiyalarni (bank xizmatlarini) ko'rsatadi.

Bank xizmatlari markazlari (ofislari)da ular joylashgan hudud aholisining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda Bank litsenziyasi doirasida o'z nizomlariga muvofiq boshqa moliyaviy operatsiyalarni (bank xizmatlarini) ham amalga oshirishi mumkin.

3.11. Bank yuridik shaxslarni tashkil etish va (yoki) yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni yoki aksiyalarni olish taqiqlanadi, bundan quyidagilar mustasno:

kredit, sug'urta, faktoring va lizing operatsiyalarini professional asosda amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

moliya bozori infratuzilmasining bir qismi bo'lgan yoki banklarga axborot va maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar;

qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

Bankning kafolati ostida qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish maqsadida Bankning xorijda tashkil etiladigan shu'ba tashkilotlari;

faqat inkassatsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar;

bank operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar, shu jumladan bank kartalari bilan operatsiyalarga doir hisob-kitoblar ishtirokchilari o'rtasida o'zaro bog'liqligini ta'minlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar;

fond va valyuta birjalari;

kredit byurolari;

qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozoriga joylashtirilgan aksiyalarning yigirma foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda fond birjasi listingiga kiritilgan aksiyadorlik jamiyatlari.

3.12. Ushbu Ustavning 3.11-bandiga muvofiq Bank tomonidan bir yuridik shaxsning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini yoki aksiyalarini olish Bankning birinchi darajali regulyativ kapitalining o'n besh foizidan oshmasligi kerak. Ushbu cheklov Bank tomonidan mazkur yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga yoki aksiyalariga egalik qilishga, shu

jumladan mazkur yuridik shaxslarning tashkil etilishi hollariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

3.13. Bank tomonidan yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini yoki aksiyalarini sotib olish yig'indisi Bankning birinchi darajali regulyativ kapitalining ellik foizidan oshmasligi kerak.

3.14. Bankka o'z ustav kapitalining bir yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi yuridik shaxsining ustav fondida (ustav kapitalida) ishtirok etish taqiqlanadi.

3.15. Ushbu Ustavning 3.5 va 3.11-3.14-bandlarining talablari Bank tomonidan boshqa bankning aksiyalarini yoki o'zga bank saqlovchisi bo'lgan boshqa qimmatli qog'ozlarni yoxud o'zga bankka tegishli yuridik shaxslar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni yoki aksiyalarni ular tomonidan qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shaklida qayta tashkil etish amalga oshirilayotganda olish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3.16. Bank boshqa bankning aksiyalarini bevosita yoki bilvosita olishdan oldin Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart. Bank boshqa bankning ustav kapitalidagi ulushini ko'paytirish uchun Markaziy bankning takroriy dastlabki ruxsatnomasini olishi shart.

4. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. O'z faoliyatini amalga oshirish va oldida turgan vazifalarni bajarish uchun Bank quyidagi huquqlarga ega:

mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar uchun vositachilik haqi miqdorini mustaqil belgilash;

shartnoma asosida yuridik va jimoniy shaxslar tomonidan berilgan mablag'larni depozitlar, kreditlar shaklida boshqa banklardan jalb etish va boshqa banklarga joylashtirish;

omonatchilar va qarz oluvchilar bilan kelishuvga muvofiq depozitlar va beriladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini mustaqil belgilash;

tashkil etiladigan hisob-kitob markazlari va vakillik hisobvaraqlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish;

barcha soliqlar va majburiy to'lovlar to'lab bo'lingandan keyin Bank tasarrufida qoladigan sof foyda hisobidan zaxiralar va fondlarni tashkil etish;

kredit ajratilayotgan yuridik shaxs hamda kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlaridan hisobotlar, balanslar va ularning to'lov qobiliyatini, shuningdek berilgan kreditlar ta'minlanganligini tasdiqlovchi hujjatlarni olish;

o'z mablag'lari yoki Bank kreditlari ishtirokida obyektlarni qurish, texnika bilan qayta jihozlash va boshqa xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bo'yicha mo'ljallanayotgan loyiha yechimlari ekspertizadan o'tkazilishini talab qilish;

qarzdorning to'lovga qodir emasligi e'tirof etilganda, u kreditni ta'minlash bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganda, kreditdan maqsadli foydalanish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar buzilganda, hisobotlarda noto'g'ri ma'lumotlar aniqlanganda yoki buxgalteriya hisobida kamchiliklarga yo'l

qo'yilganda, shuningdek kredit shartnomasida nazarda tutilgan boshqa hollarda kreditni bundan buyon berishni to'xtatish va berilgan kredit summalarini muddatidan oldin undirib olish;

o'z moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, qonunchilikda, litsenziyada va Ustavda nazarda tutilgan boshqa harakatlar va operatsiyalarni bajarish;

homiylilik va xayriya faoliyatini amalga oshirish;

qonunchilikka muvofiq, o'z xodimlari uchun qo'shimcha ish ta'tillari, qisqartirilgan ish kuni, ish tartibi va boshqa ijtimoiy imtiyozlarni tashkil etish.

4.2. Bankning majburiyatlari:

Markaziy bankda mablag'lar zaxirasini yaratish hamda belgilangan prudensial normativlarga rioya etish bo'yicha Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan talablarni bajarish;

Markaziy bankning topshirig'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining kassa ijrosiga doir operatsiyalarni bajarish;

beriladigan kreditlarni ta'minlash bo'yicha garov, kafolat, kafillik va majburiyatlarning yetarililigini hisobga oluvchi ichki me'yorlarni o'rnatish;

kreditlar va lizing bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi Markaziy bank tomonidan belgilangan miqdorlarda va tartibda zaxiralar tashkil etish;

o'z mijozlari va vakillarining operatsiyalari, hisobvaraqlari hamda jamg'armalariga doir ma'lumotlarni, shuningdek bank sirini tashkil etuvchi boshqa ma'lumotlarni sir saqlash;

o'z faoliyatiga doir axborotni Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda oshkor qilishni amalga oshirish;

Bankda ichki audit xizmatini ta'minlash.

4.3. Mijozlarning Bankdagi hisobvaraqlarida, omonatlarida turgan yoki saqlash uchun qo'yilgan pul mablag'lari hamda boshqa qimmatliklari faqat qonunchilikda belgilangan hollarda va tartibda xatlanishi yoki ularga undiruv qaratilishi mumkin.

4.4. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar sudga, sud ijrochisiga, prokuratura, tergov va surishtiruv organlariga, shuningdek davlat soliq xizmati organlariga qat'iy ravishda qonunchilikda belgilangan tartibda taqdim etiladi.

4.5. Mijozlar shubhali operatsiyalarni amalga oshirgan taqdirda, pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi axborot jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organiga qonunchilikda belgilangan tartibda taqdim etiladi.

4.6. Bankning mansabdor shaxslari va xizmatchilari bank sirini oshkor qilganlik uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

4.7. Bankning homiylikka sarflanadigan har yilgi xarajatlari o'tgan yilda olingan sof foydaning 3 (uch) foizidan oshmasligi kerak hamda bu xarajatlar Bank biznes-rejasining o'tgan hisobot davridagi sof foydaga taalluqli qismi ko'rsatkichlari bajarilganda amalga oshiriladi, bundan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

5. BANK USTAV KAPITALINING MIQDORI, UNI KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI

5.1. Bankning Ustav kapitali aksiyadorlar olgan Bank aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi.

Bankning ustav kapitali O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida shakllantiriladi hamda Bank aksiyadorlari kiritgan pul mablag'laridan yoki davlatning qimmatli qog'ozlaridan tashkil topadi, bundan quyidagi hollar mustasno:

Bank aksiyalarini Bankning kreditorlari orasida joylashtirish va Bankning kreditorlar oldidagi pul majburiyatlari bo'yicha har qanday huquqlarini (talablarini) hisobga olish yo'li bilan ularning haqini to'lash;

qimmatli qog'ozlarni Bank aksiyalariga ayirboshlash;

Bankning joylashtirilgan bir turdagi aksiyalarini Bankning boshqa turdagi aksiyalariga almashtirish.

Bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan, shuningdek majburiyat yuklatilgan boshqa mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

5.2. Bankning ustav kapitali miqdori 5 117 484 734 364 (besh trillion bir yuz o'n yetti milliard to'rt yuz sakson to'rt million yetti yuz o'ttiz to'rt ming uch yuz oltmish to'rt) so'mni tashkil qiladi va nominal qiymati 1 068 (bir ming oltmish sakkiz) so'm bo'lgan 4 791 517 373 (to'rt milliard yetti yuz to'qson bir million besh yuz o'n yetti ming uch yuz yetmish uch) dona egasining nomi yozilgan oddiy va 135 000 (bir yuz o'ttiz besh ming) dona egasining nomi yozilgan imtiyozli joylashtirilgan aksiyalardan iborat.

a) Bankning ustav kapitalini ko'paytirish tartibi

5.3. Bankning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

5.4. Qo'shimcha aksiyalar Bank tomonidan ushbu Ustavda belgilangan e'tim qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtirilishi mumkin.

5.5. Bank Ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi va Bank Ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

5.6. Bankning ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari hamda shartlari belgilangan bo'lishi kerak.

5.7. Bankning ustav kapitalini ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda Bank Ustavida ko'rsatilgan e'lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga qisqartirilishi kerak.

5.8. Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qo'shimcha aksiyalarni chiqarish haqidagi qaror Bankning ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qarordir.

5.9. Bankning ustav kapitalini ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, Bankning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

5.10. Bankning ustav kapitalini uning o'z kapitali hisobidan ko'paytirishda qo'shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Bankning ustav kapitali ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, Bankning ustav kapitalini ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

b) Bankning ustav kapitalini kamaytirish tartibi

5.11. Bankning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Bank tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

5.12. Bankning ustav kapitalini aksiyalarning bir qismini olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirishga yo'l qo'yiladi.

5.13. Agar Bank ustav kapitali kamaytirilishi natijasida uning miqdori Bank Ustavidagi tegishli o'zgarishlarni ro'yxatga olish sanasida, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdoridan kamayib ketsa, Bank ustav kapitali miqdorini kamaytirishga haqli emas.

5.14. Bankning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi va Bank Ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

5.15. Bankning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilmayotganda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav kapitalini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

5.16. Bank o'zi joylashtirgan aksiyalarni Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining joylashtirilgan aksiyalarning bir qismini olish va ushbu aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish yo'li bilan Bank ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi qaroriga ko'ra, shuningdek ularni keyinchalik belgilangan tartibda qayta sotish maqsadida Bank Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra olishga haqli.

5.17. Bank o'z aksiyalarini sotib olish uchun Markaziy bankning dastlabki muvotimmasini olishi shart. Bank tomonidan sotib olinadigan o'z aksiyalarining summasi Bank ustav kapitalining 10 (o'n) foizidan oshishi mumkin emas.

5.18. Aksiyalarni sotib olish to'g'risidagi qarorda sotib olinadigan aksiyalarning turlari, Bank sotib oladigan har bir turdagi aksiyaning soni, sotib olish narxi, aksiyalar haqini to'lash shakli va muddati belgilab qo'yiladi.

5.19. Bank aksiyalarini sotib olish vaqtida ularga pul mablag'lari bilan haq to'lanadi.

5.20. Bank tomonidan oddiy va imtiyozli aksiyalarni sotib olish narxi bozor bahosiga muvofiq belgilanadi.

5.21. Bank tasarrufiga o'tgan aksiyalar ovoz berish huquqini bermaydi, ovozlarni sanab chiqishda hisobga olinmaydi, ular bo'yicha dividendlar hisoblab chiqarilmaydi.

5.22. Keyinchalik qayta sotish maqsadida Bank tasarrufiga o'tgan aksiyalar ular Bank tasarrufiga o'tgan paytdan e'tiboran bir yildan kechiktirmay realizatsiya qilinishi kerak, aks holda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Bankning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishi lozim. Ko'rsatilgan muddatda realizatsiya qilinmagan aksiyalar bekor qilinishi kerak.

5.23. Bank kreditorlari Bankning ustav kapitali kamaytirilganligidan xabar topgan sanadan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay Bankdan o'z majburiyatlarini muddatidan oldin bajarishini va ustav kapitali kamaytirilishi bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplashini talab qilishga haqli.

6. BANK AKSIYALARI TURLARI, NOMINAL QIYMATI VA NISBATI, BANKNING E'LON QILINGAN AKSIYALARI

6.1. Bankning aksiyalari egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular turiga ko'ra oddiy va imtiyozli aksiyalarga bo'linadi.

Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati Bank ustav kapitalining 25 (yigirma besh) foizidan oshmasligi kerak.

6.2. Oddiy aksiyalarni imtiyozli aksiyalarga, korporativ obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga ayirboshlashga yo'l qo'yilmaydi.

6.3. Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik yoxud jismoniy shaxs aksiyaning egasi – Bank aksiyadori deb e'tirof etiladi.

6.4. Oddiy aksiyalar ovoz beruvchi aksiyalar bo'lib, ular o'z egasiga dividendlar olish, Bankni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

6.5. O'z egalariga dividendlarni, shuningdek Bank tugatilayotganda aksiyalarga qo'yilgan mablag'larni birinchi navbatda olish huquqini beradigan aksiyalar imtiyozli aksiyalardir. Imtiyozli aksiyalar o'z egalariga Bank foyda ko'rishi-ko'rmasligidan qat'i nazar muayyan dividendlar olish huquqini beradi.

6.6. Aksiyaning egasi bo'lgan aksiyadorga ovozga qo'yilgan masalani hal etishda ovoz berish huquqini beradigan oddiy yoki imtiyozli aksiya Bankning ovoz beruvchi aksiyasidir.

6.7. Bank aksiyalarining nominal qiymati 1 068 (bir ming oltmish sakkiz)

6.8. Bank chiqaradigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi lozim.

6.9. E'lon qilingan aksiyalar: Bank ustav kapitalini oshirish maqsadida, joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda joylashtirishga haqli bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarning miqdori nominal qiymati 1 068 (bir ming oltmish sakkiz) so'mlik 7 001 363 274 (yetti milliard bir million uch yuz oltmish uch ming ikki yuz yetmish to'rt) dona umumiy qiymati 7 477 455 976 632 (yetti trillion to'rt yuz yetmish yetti milliard to'rt yuz ellik besh million to'qqiz yuz yetmish olti ming olti yuz o'ttiz ikki) so'm bo'lgan, egasining nomi yozilgan, hujjatsiz shakldagi, oddiy aksiyalardan iborat.

7. BANK AKSIYALARINI JOYLASHTIRISH TARTIBI VA SHARTLARI

7.1. Bank aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni ochiq va yopiq obuna vositasida joylashtirishga haqli.

7.2. Aksiyalar va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish (ochiq yoki yopiq obuna) usullari qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaror bilan belgilanadi.

7.3. Aksiyalarning ochiq obunasi faqat tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolarida o'tkaziladi.

7.4. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan aksiyadorlar o'rtasida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxi Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar konyunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

7.5. Bank tomonidan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak.

7.6. Qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror bir vaqtning o'zida bir chiqarilishdagi qimmatli qog'ozlarni xususiy (yopiq obuna) va ommaviy (ochiq obuna) joylashtirishni nazarda tutmasligi kerak (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumati qarorlaridan kelib chiquvchi holatlar bundan mustasno).

7.7. Bankning qimmatli qog'ozlari ochiq obuna yo'li bilan joylashtirilgan taqdirda bir investorning (investorlarning) boshqasi (boshqalari) oldidagi ustunligini belgilash taqiqlanadi, bundan quyidagi holatlar mustasno:

Bank aksiyadorlariga qo'shimcha chiqarilgan aksiyalarni qonunchilikda belgilangan tartibda ularga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda imtiyozli olish huquqi taqdim etilganida;

Bank tomonidan norezidentlarga nisbatan qimmatli qog'ozlarni olishga cheklolar qo'yilganida;

Bank tomonidan obligatsiyalarni shaxslar (jismoniy yoki yuridik shaxslar) tomonidan belgilash orqali sotib olishga cheklolar qo'yilganida;

Bank xodimlariga Bank tomonidan joriy qilinadigan aksiyalar birlamchi ommaviy joylashtirilganda xodimlarning aksiyalarga egalik qilish rejasi doirasida aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquq taqdim etilganida.

7.8. Bankning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Bank aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

7.9. Bankning qo'shimcha aksiyalariga ushbu aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan joylashtirish muddati ichida haq to'lanishi lozim.

7.10. Bankning aksiyalariga va boshqa qimmatli qog'ozlariga haq to'lash faqat pul mablag'lari bilan amalga oshiriladi, qonunchilikda ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno.

7.11. Bankning aksiyalari ularning haqi to'liq to'langanidan keyin uning egasiga beriladi.

7.12. Aksiyaning haqi to'liq to'langunga va uning yangi egasi aksiyadorlar reyestrda ro'yxatga olingunga qadar aksiya ovoz huquqini bermaydi.

7.13. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq Bank joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirishga haqli bo'lib, buning natijasida Bankning ikki yoki undan ortiq aksiyasi huddi shu turdagi bitta yangi aksiyaga ayiriboshlanadi. Bunda Bank Ustaviga uning joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymatiga va soniga taalluqli tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

7.14. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Bank joylashtirilgan aksiyalarni maydalashni amalga oshirishga haqli bo'lib, buning natijasida Bankning bir aksiyasi xuddi shu turdagi ikki yoki undan ortiq aksiyaga ayiriboshlanadi. Bunda Bank Ustaviga Bankning joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymatiga va soniga taalluqli tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

7.15. Bank o'zi chiqargan aksiyalar bo'yicha ularni qaytarib sotib olish sharti bilan bitimlar tuzishga, shuningdek o'zi chiqargan aksiyalarni ishonchli boshqaruvga berishga haqli emas.

7.16. Bank qonunchilikka muvofiq obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga va joylashtirishga haqli.

7.17. Bank aksiyalariga egalik qilishga doir ruxsatnoma olish tartibi:

7.17.1. Jismoniy va yuridik shaxslar yoki birgalikda harakat qiluvchi shaxslar, shu jumladan norezidentlar bir yoki bir necha bitim natijasida Bankning ustav kapitalidagi:

besh va undan ko'proq foizni, lekin ko'pi bilan yigirma foizni;

yigirma va undan ko'proq foizni, lekin ko'pi bilan ellik foizni;

ellik va undan ko'proq foizni tashkil etadigan ulushni bevosita yoki bilvosita olishdan oldin banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart.

7.17.2. Boshqa banklar Bankning aksiyalarini bevosita yoki bilvosita olishdan oldin Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart. Boshqa

banklar Bankning ustav kapitalidagi ulushini ko'paytirish uchun Markaziy bankning takroriy dastlabki ruxsatnomasini olishi shart.

7.17.3. Agar Bankning aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligini olish talab etilsa, Bank aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun berilgan ariza Markaziy bank tomonidan monopoliyaga qarshi organning qarorini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi.

7.17.4. Mazkur Ustavning 7.17.1 va 7.17.3-bandlarida ko'rsatilgan Bank aksiyalarini olishga doir dastlabki ruxsatnomasiz tuzilgan Bank aksiyalarini olishga oid bitimlar haqiqiy emas deb hisoblanadi.

7.17.5. Shaxs o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarda Bankning aksiyalarini ushbu Ustavning 7.17.1-bandida ko'rsatilgan hajmda olganda Markaziy bank ruxsatnomasini olish talab qilinadi. Shaxs o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarda Bankning aksiyalarini olgan kundan e'tiboran Markaziy bank tomonidan tegishli qaror qabul qilinadigan kunga qadar aksiyalar egasining huquqlari to'xtatib turiladi.

7.17.6. Aksiyador o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarda Bank aksiyalarini olgan kundan e'tiboran oltmish kun ichida Markaziy bankning ruxsatnomasini olish uchun ariza taqdim etishi kerak. Aksiyador tomonidan ariza taqdim etilmagan taqdirda, o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarda olingan Bank aksiyalari olingan kundan e'tiboran uch oy ichida boshqa shaxsga berilishi lozim.

7.18. Bank aksiyalariga egalik qilishga doir cheklovlar:

7.18.1. Imtiyozli soliq rejimini taqdim etuvchi va (yoki) oxirgi benefitsiar mulkdorning shaxsini oshkor qilish hamda moliyaviy operatsiyalarni o'tkazish chog'ida axborot taqdim etish nazarda tutilmaydigan davlatda yoki hududda ro'yxatga olingan yuridik shaxslar va shunday davlatda yoki hududda yashaydigan jismoniy shaxslar Bankning muassislari va aksiyadorlari bo'lishi mumkin emas (bundan chet el fond bozorlarida Bank aksiyalarini sotib olgan yuridik va jismoniy shaxslar mustasno).

7.18.2. Davlat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari asosida boshqa davlat tashkilotlari nomidan Bank aksiyadori bo'lishi mumkin.

7.18.3. Ustav fondining (ustav kapitalining) ellik foizdan ortig'i davlatga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar, agar qonunchilikda boshqacha qoida namunda tutilmagan bo'lsa, Bank aksiyadorlari bo'lishi mumkin emas.

7.18.4. Boshqa banklar Bankning aksiyalarini bevosita yoki bilvosita olishdan oldin Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart. Boshqa bankning Bank ustav kapitalidagi ulushini ko'paytirish uchun Markaziy bankning takroriy dastlabki ruxsatnomasini olishi shart.

7.19. Bank aksiyadorlarining soni chegaralanmagan.

7.20. Bank o'zi joylashtirgan qimmatli qog'ozlar erkin ayirboshlanishi mumkin bo'lgan aksiyalar beradigan huquqlarni cheklash haqida ushbu qimmatli qog'ozlar egalarining roziligisiz qaror qabul qilishga haqli emas.

7.21. Bankning qo'shimcha aksiyalari chiqarilgan holatda aksiyadorlar qonunchilikda belilangan tartibda Bank ustav kapitalidagi ulushiga proporsional ravishda imtiyozli sotib olish huquqiga ega.

8. BANK AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

8.1. Bankning oddiy aksiyalari egasi qo'yidagi huquqlarga ega:

Bankning aksiyadorlari reyestriga kiritilish;

depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;

Bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

Bank tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Bankni boshqarishda ishtirok etish;

Bankning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;

olgan dividendini erkin tasarruf etish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;

o'ziga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish;

Bank aksiyalari beradigan huquqlarni (huquqlarning bir qismini) qonunchilikda belgilangan tartibda ishonchnoma asosida o'z vakiliga (vakillariga) berish;

Bank tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar va ularning narxnomalari to'g'risida axborot olish;

o'zlariga tegishli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning va Bankning ma'lumligisiz o'ziga shaxsga berish;

Bank aksiyadorlari o'rtasida ularning huquqlarini amalga oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda korporativ shartnoma tuzish.

8.2. Bankning imtiyozli aksiyalari egasi qo'yidagi huquqlarga ega:

Bankning aksiyadorlari reyestriga kiritilish;

depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;

Bank foyda ko'rish-ko'rmasligidan qat'i nazar, imtiyozli aksiyalar egalariga ustava Ustavning 9.12-bandida belgilangan miqdordagi dividendlarni birinchi marta olish;

olgan dividendini erkin tasarruf etish;

Bank tugatilgan taqdirda imtiyozli aksiyalarga belgilangan tugatish qiymatini birinchi navbatda olish;

Bankning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;

qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Bankni qayta tashkil etish va tugatish masalalari hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etish;

o'ziga yetkazilgan zararining o'ri qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

Bank tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar va ularning narxnomalari to'g'risida axborot olish;

o'zlariga tegishli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning va Bankning ma'ligisiz o'zga shaxsga berish;

Bank aksiyalari beradigan huquqlarni (huquqlarning bir qismini) qonunchilikda belgilangan tartibda ishonchnoma asosida o'z vakiliga (vakillariga) berish;

Bank aksiyadorlari o'rtasida ularning huquqlarini amalga oshirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda korporativ shartnoma tuzish.

8.3. Aksiyadorlar mazkur Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'ladilar.

8.4. Bankning har bir oddiy aksiyasi uning egasi bo'lmish aksiyadorga bir xil hajmda huquqlar beradi.

8.5. Aksiya bo'linmasdir. Agar aksiya umumiy mulk huquqi asosida bir nechta shaxsga tegishli bo'lsa, bu shaxslarning barchasi bir aksiyador deb e'tirof etiladi va aksiya bilan tasdiqlangan huquqlardan o'zlarining umumiy vakili orqali ifodalanadi.

8.6. Bir turdagi aksiya unga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga shu turdagi aksiyalarning boshqa egalari bilan bir xil bo'lgan hajmdagi huquqlarni beradi.

8.7. Oddiy aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlar ushbu Ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin.

8.8. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobidagi aksiyalarga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan boshlab o'tadi va qonunchilikda belgilangan tartibda beriladigan depo hisobidagi aksiyalardan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

8.9. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularni oluvchiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.

8.10. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Bankni qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi masalalar hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etadilar. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Bank Ustaviga imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklaydigan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalar, shu jumladan avvalgi navbatdagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendning miqdorini belgilash yoki ko'paytirish va (yoki) tugatilish qiymatini belgilash yoki ko'paytirish masalalari, shuningdek imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarga dividend va (yoki) bu aksiyalarning tugatilish qiymatini to'lash navbati bo'yicha imtiyozlar berish hollari hal etilayotganda ovoz berish huquqini oladilar.

8.11. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki dividendlarni to'liq to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan keyingi yig'ilishdan boshlab ega bo'ladi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi mazkur aksiyalar bo'yicha dividendlar birinchi marta to'liq miqdorda to'langan paytdan e'tiboran bekor qilinadi.

8.12. Ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar:

Bankni qayta tashkil etish to'g'risida;

joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirish haqida;

yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqilganda;

Bankning Ustaviga ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklovchi o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi Ustavni tasdiqlash to'g'risida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilishda, agar ular qarshi ovoz bergan bo'lsa yoxud ovoz berishda ushbu sahifalarga ko'ra ishtirok etmagan bo'lsa, o'zlariga tegishli aksiyalarning hammasi yoki bir qismi Bank tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilishga haqlidir.

Bank aksiyadorlarni o'zlariga tegishli aksiyalarning Bank tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilish huquqi mavjudligi, qaytarib sotib olish narxi va qaytarib sotib olishni amalga oshirish tartibi to'g'risida xabardor etishi shart.

8.13. Aksiyadorlar mazkur Ustavning 8.12-bandida ko'zda tutilgandan tashqari hollarda Bankdan unga tegishli aksiyalarni qaytarib sotib olishni talab qilishga haqli emas.

8.14. Bank aksiyadorlarining majburiyatlari:

mazkur Ustavda ko'rsatilgan tartibda, miqdor va usullarda aksiyalarning narxini to'lash;

Mazkur Ustavda nazarda tutilgan chegaralarda, Bank boshqaruv organlarining qarorlariga bo'ysunish;

Bankning sirini oshkor qilmaslik;

Minoritar aksiyadorlar asossiz ravishda hujjatlar talab qilish, konfidensial ma'lumotlar va bankning tijorat sirlaridan foydalanish orqali Bank boshqaruvi organlari faoliyatiga halal bermaslik.

8.15. Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqlikni ta'minlash uchun Bank aksiyadorlarining majburiyatlari:

Hal qiluvchi egalikka bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi, shu jumladan o'zingi benefitsiar mulkdor aksiyadorning banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini baholashga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hujjatlar to'g'risida shunday holatlar vujudga kelgan kundan e'tiboran 5 (besh) ish kuni ichida Markaziy bankni xabardor qilish;

Bank tomonidan so'rab olinadigan axborotni taqdim etish.

8.16. Aksiyadorlar mazkur Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladilar.

8.17. Bankning barcha aksiyadorlariga, ularning ulushi, daromad darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar bir xil munosabat ta'minlanadi.

8.18. Bank Davlat nomidan ishtirok etayotgan aksiyadorlar bilan birgalikda boshqa aksiyadorlarning qonunchilikda belgilangan huquqlarini tan olishadi, ularning ushbu huquqlarini himoya qilish choralari ko'rishadi, shuningdek boshqa aksiyadorlarning qancha ulushga ega ekanliklaridan qat'iy nazar bir xil munosabat ta'minlashadi.

8.19. Aksiyadorning vakili aksiyadorlar umumiy yig'ilishida kun tartibidagi masalalar bo'yicha aksiyadorning o'zi bilan kelishgan holda qatnashadi va ovoz beradi. Bunda kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini aksiyadorning o'zi bilan kelishish aksiyadorning vakili tomonidan ularga qulay ixtiyoriy shaklda amalga oshiriladi. Aksiyador va uning vakili o'rtasidagi munosabat, shu jumladan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini kelishish, Bank ishtirokisiz va qonunchilik asosida tartibga solinadi.

8.20. Bankning ustav kapitalida kamida 5 (besh) foiz miqdoridagi ulushga ega bo'lgan aksiyadorlari tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining buyurtmachilari bo'lishi mumkin.

8.21. Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi minoritar aksiyadorlarning qonunchilikda va ushbu Ustavda belgilangan o'rni va huquqlari cheklanilishiga ta'sir qo'ymaydi, shuningdek aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibidagi

masalalar, jumladan yirik bitimlar tuzish bo'yicha maslahatlar o'tkazilishini tashkil etadi.

8.22. Bank aksiyalari ushbu Ustavning 7.17.1 va 7.17.2-bandlarida belgilangan talablar buzilgan holda olingan taqdirda, aksiyalarning egasi bunday hirim tuzilgan kundan e'tiboran aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berishga, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni va o'tkazishni talab qilishga, kun tartibiga masalalar kiritishga, Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zoriga nomzodlar ko'rsatishga, shuningdek Bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga haqli emas.

9. BANK SOF FOYDASINI VA DIVIDENDLARNI TAQSIMLASH, SHUNINGDEK ZARARLARINING O'RNINI QOPLASH TARTIBI

9.1. Amaldagi qonunchilikka asosan budjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng, Bank fondlariga ajratmalar o'tkaziladi. Taqsimlangan foyda Bank Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan tartibda ishlatiladi.

9.2. Dividendlar Bank tasarrufida qoladigan sof foydadan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar Bankning buning uchun maxsus mo'ljallangan fondlari hisobidan to'lanishi mumkin.

9.3. Dividend Bank sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir.

9.4. Bank aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

9.5. Dividend Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mahlag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Bankning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

9.6. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

9.7. Bank moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

9.8. Bankning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar (oraliq dividendlar) to'lash to'g'risidagi qarori to'rtinchi davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

9.9. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Bank Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xizmatlari mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Dividendlarning miqdori Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas. Bunda Bankning aksiyalari fond bozorida mavjud bo'lgan aksiyalar yo'li bilan joylashtirilgan taqdirda, kamida 7 (yetti) yil

davomida Bank sof foydasining kamida 30 (o'ttiz) foizi dividendlarni to'lashga yo'naltiriladi, bundan qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlar mustasno.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividendlar to'lamalik to'g'risida, shuningdek Bank ustavida dividend miqdori belgilab qo'yilgan imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'liq bo'lmagan miqdorda dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilishga haqli.

9.10. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatiladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining dividendlarni to'lash to'g'risidagi qarori qabul qilinganligi va boshqa muhim axborot haqidagi xabar ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 15 (o'n besh) kun ichida jo'natilganligi faktini va qabul qilinganligi to'g'risidagi xabarnomani qayd qilgan holda, aksiyadorlar e'tiboriga mobil telefonga qisqa xabarlar (SMS-xabarlar) va (yoki) elektron pochta (aksiyadorlar reyestrda mobil telefon raqami va elektron pochta manzili mavjud bo'lganda) orqali yetkaziladi.

9.11. Dividendlar to'lash muddati va tartibi Bank Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi. Dividendlar to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 60 (oltmish) kundan kech bo'lmasligi lozim.

9.12. Bankning imtiyozli aksiyalari bo'yicha, agar Bankda to'lash uchun manbaa (sof foyda, taqsimlanmagan foyda) va/yoki zaxira fondida yetarli mablag'lar mavjud bo'lsa, imtiyozli aksiyalar nominal qiymatining 20 (yigirma) foizi miqdorida dividend to'lanadi.

9.13. Bankning imtiyozli aksiyalari bo'yicha tugatish qiymati, imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatiga teng.

9.14. Dividendlarni to'lash chog'ida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha belgilangan dividendlarni to'lash uchun yetarli miqdorda foyda mavjud bo'lgan taqdirda Bank mazkur aksiyalarning egalariga dividendlar to'lashni rad etishga haqli emas. Bank rad etgan taqdirda aksiyadorlar dividendlar to'lanishini sud tartibida talab qilishi mumkin. Bank yetarli miqdorda foydaga ega bo'lmagan yoki zarar ko'rib ishlayotgan taqdirda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar Bank tomonidan Bankning ana shu maqsad uchun tashkil etilgan ma'muriy fond hisobidan va ushbu fond doirasida to'lanishi mumkin.

9.15. Dividendlarni to'lash Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi yoki investitsiya vositachilari orqali aksiyadorning mavjud bank hisobvarag'iga qamanchilik hujjatlarida belgilangan tartibda avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Bunda Bank aksiyadordan dividendlarni to'lash to'g'risidagi arizani talab qilishga haqli emas.

9.16. Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Bank aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish haqqiga ega.

9.17. Bank quyidagi hollarda dividend to'lash (e'lon qilish) to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega emas:

Bank ustav kapitalining hammasi uning ta'sis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'linguniga qadar;

agar dividendlar to'lanadigan paytda Bankda to'lovga qobiliyatsizlik belgilari mavjud bo'lsa yoki Bankda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;

agar Bank sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa;

Markaziy bank tomonidan belgilangan prudensial normativlarni buzish, shuningdek agar dividendlar to'lash natijasida prudensial normativlar buzilib, ularning oqibatida omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga jiddiy xavf tug'ilishi mumkin bo'lsa;

Bankka nisbatan Markaziy bankning dividendlar to'lashni to'xtatish to'g'risida talabi mavjud bo'lsa.

9.18. Bank dividendlar miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi.

9.19. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi ushbu Ustav va Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi.

9.20. Bank aksiyadorlarga dividendlar to'lash, shuningdek Bankning Kuzatuv kengashi, Boshqaruvi a'zolari va xodimlarini mukofotlash orqali foydani taqsimlashni quyidagi hollarda amalga oshirishga haqli emas:

prudensial normativlar Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq bo'lmaganda yoki ular mazkur taqsimlash oqibatida buzilganda;

to'lovga qobiliyatsiz bo'lganda yoki mazkur taqsimlash oqibatida to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari yuzaga kelganda;

Markaziy bankning ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmasida aks etirilgan, shu jumladan axborotni oshkor etish borasida ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilmaganda yoki ularni bartaraf etish imkoniyati mavjud bo'lmaganda;

Markaziy bankning foydani taqsimlamaslik to'g'risida Bankka nisbatan talabi mavjud bo'lganda.

9.21. Bank quyidagi hollarda foydani taqsimlash uchun Markaziy bankning roziligini olishi kerak:

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 39-moddasining birinchi qismining birinchi xatboshisida ko'rsatilgan to'lovlarning umumiy summasi Bankning o'z kapitalining 10 (o'n) foizidan ortiq bo'lganda;

har yili yoki o'tgan chorakda va (yoki) moliya yilida zarar mavjud bo'lganda.

9.22. Bankning zararlari qonunchilikda belgilangan tartibda zaxira fondi mablag'larini hisobiga qoplanadi.

10. BANKNING O'Z MABLAG'LARI VA KREDIT RESURSLARI, BANK ZAXIRA FONDINI VA BOSHQA FONDLARNI TASHKIL ETISH

10.1. Bankning o'z mablag'lari quyidagilardan tashkil etiladi:

ustav kapitali;
qo'shilgan kapital;
zaxira fondlari;

taqsimlanmagan foyda;

Bank faoliyati uchun zarur bo'lgan, boshqa daromadlar hisobidan tashkil etiladigan va amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa fondlar;

qonunchilik bilan belgilangan boshqa mablag'lar.

10.2. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Bankning zaxira fondi zararni qoplash, Bankning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va qonunchilikka muvofiq aksiyalarni sotib olishni talab qilish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning talabiga binoan aksiyalarni sotib olish uchun mo'ljallanadi.

10.3. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

10.4. Bank fondlarini tashkil etish va ulardan foydalanish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10.5. Bank ustav kapitalining 15 (o'n besh) foizidan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi.

10.6. Bank zaxira fondiga ushbu Ustavning 10.5-bandida belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan kamida 5 (besh) foiz miqdorda ajratmalar o'tkazadi.

10.7. Zaxira fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, majburiy ajratmalardan tiklanadi.

10.8. Bank sof aktivlarining qiymati buxgalteriya hisob-kitob ma'lumotlari bo'yicha belgilangan tartibda baholanadi.

10.9. Bankning kredit resurslari quyidagilar hisobiga shakllanadi:

Bankning o'z mablag'lari (sotib olingan asosiy vositalar qiymati, boshqa yuridik shaxslar ustav kapitalida ishtirok ulushiga qilingan qo'yilmalar va o'zga immobilizatsiya qilingan mablag'lardan tashqari);

yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlaridagi mablag'lari;

fuqarolarning muayyan muddatga va talab qilib olinguncha jalb qilingan ammatlari;

boshqa banklarning depozitlari va kreditlari;

imzolangan bitimlar va shartnomalarga muvofiq jalb qilinadigan chet el davlatlarining korxonolari va banklari mablag'lari;

obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar joylashtirish natijasida olingan mablag'lar;

Bank tomonidan jalb qilingan boshqa mablag'lar.

Bankning moliya yili mobaynida taqsimlanmagan foydasidan kredit resurslari sifatida foydalanilishi mumkin.

11. BANKNING BOSHQARUV ORGANLARI

11.1. Bank boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;

Kuzatuv kengashi;

Boshqaruv – ijroiya organi (ijro etuvchi organi).

11.2. Bankning mansabdor shaxslari tomonidan o'z vazifalarini professional asosda amalga oshirishlari, qonunchilik, Bank Ustavi va boshqaruv organi qarorlaridan kelib chiquvchi barcha majburiyatlarni vijdonan va oqilona bajarishlari shart.

12. BANK AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG'ILISHI

12.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Bankning yuqori boshqaruv organidir.

12.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Bank Kuzatuv kengashining raiisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Bank Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

12.3. Bank aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi har yili moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi odatda har yili iyun oyining 1-sanasiidan 30-sanasigacha bo'lgan davr oralig'ida o'tkaziladi.

12.4. Bank aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishida Bank Kuzatuv kengashini saylash to'g'risidagi, Bank Boshqaruv raisi bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek Bankning yillik hisoboti va boshqa hujjatlar ko'rib chiqiladi.

12.5. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilish hisoblanadi.

12.6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana va uni o'tkazish tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Bank Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

12.7. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

Bank Ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki Bankning yangi navbatdagi Ustavini tasdiqlash;

Bankni qayta tashkil etish;

Bankni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda umumiy va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

Bank Kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish. Kuzatuv kengashi a'zolariga haq (mukofot) va kompensatsiyalar to'lash;

e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

Bankning ustav kapitalini ko'paytirish yoki kamaytirish;

o'z aksiyalarini qaytarib sotib olish;

Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash va unga o'zgartirish kiritish, Boshqaruvini tuzish, Boshqaruv raisini saylash (tayinlash) va Boshqaruv raisining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Bankning "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi, "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi "Boshqaruvi to'g'risida"gi Nizomlarini va vakolat doirasida boshqa ichki hujjatlarini (qoidalarini) tasdiqlash;

Bankning yillik hisobotini, shuningdek Bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Bankni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

Bankning foydasi va zararlarini taqsimlash;

Bank Kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Bankni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Bank Kuzatuv kengashining hisobotlarini e'lon qilish;

aksiyadorlarning Bank aksiyalari yoki boshqa qimmatli qog'ozlarini olishga doir imtiyozli huquqini qo'llamaslik to'g'risida amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;

majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Bankning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

Kuzatuv kengashining tavsiyasi bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qarorni qabul qilish, ularning miqdori va aksiyalarning har bir toifasi va turi bo'yicha to'lov shakli va tartibini belgilash;

Boshqaruvning affillangan shaxslar bilan bitimlar va yirik bitimlarni muvofiq amalga oshirishi uchun Bankning joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni aniqlash;

aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan Korporativ boshqaruv Kengashi va Devlat ishtirokidagi korxonalar uchun Korporativ boshqaruv Qoidalari

tavsiyalariga rioya etish majburiyatini olish to'g'risida qaror qabul qilish va xabarni oshkor qilish shaklini tasdiqlash;

homiylilik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatishni (olishni) qonunchilikda belgilangan doirasini inobatga olgan holda miqdorini belgilash orqali va bu haqda barcha aksiyadorlar uchun ma'lumotlarni oshkor etish sharti bilan, Bank Kuzatuv kengashiga homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash vakolatini berish;

Bank biznes-jarayonlari va loyihalarini Bankning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o'tkazish uchun mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb qilish;

sanoq komissiyasiga amaliy ko'mak ko'rsatish yoki uning funksiyasini bajarish uchun mustaqil ekspertlarni jalb etish;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beruvchi Bank boshqaruv va nazorat organlari ma'ruzalari (hisobotlari) shakli va mazmuniga bo'lgan talablarni, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi davomiyligini belgilash;

Bankning "Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risida"gi va "Ichki nazorat to'g'risida"gi Nizomlarini tasdiqlash;

Bank mansabdor shaxslariga Korporativ boshqaruv Kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun Korporativ boshqaruv Qoidalari tavsiyalariga rioya etmaganlik yoki ushbu Kodeks va Qoidalarda nazarda tutilgan axborotlarni oshkor etmaganlik uchun javobgarlik chorasini o'rnatish;

Bank Boshqaruviga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash va ularga o'zgartirish kiritish;

Bank Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarining (KPIning) yillik natijalarini ko'rib chiqish;

qonunchilikda va mazkur Ustavda ko'zda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

12.8. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Bankning Boshqaruvi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

12.9. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Bankning Kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, quyidagi masalalar bundan mustasno:

Bankning ustav kapitalini ko'paytirish, shuningdek Bank Ustaviga Bankning ustav kapitalini ko'paytirish hamda Bankning e'lon qilingan aksiyalari sonini ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

Aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;

Bank tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga e'tibolanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

Bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

Bankning Boshqaruvini tuzish, Boshqaruv raisini saylash (tayinlash), Boshqaruv raisining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Bankning yillik biznes-rejasini tasdiqlash.

12.10. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori, agar qonunchilikda va ushbu Ustavda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, yig'ilishda ishtirok etayotgan Bank ovoz beruvchi aksiyalari egasi bo'lmish aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

12.11. Ushbu Ustavning 12.7-bandi ikkinchi va yigirmanchi xatboshilarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan faqat Kuzatuv kengashining tavsiyasiga binoan qabul qilinadi.

12.12. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

Bankning Boshqaruviga to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash hamda Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, shuningdek ularga o'zgartirish kiritish bo'yicha masalalar Kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullangandan so'ng Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga kiritiladi.

12.13. Agar aksiyador uzrli sababga ko'ra aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etmagan yoki bunday qaror qabul qilinishiga qarshi ovoz bergan bo'lsa, u Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilishga haqlidir.

12.14. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari amaldagi qonunchilikda va ushbu Ustavda nazarda tutilgan tartibda, ushbu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

12.15. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan 3 (uch) ish kuni oldin shakllantirilgan Bank aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

12.16. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 21 (yigirma bir) kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan 30 (o'ttiz) kun oldin Korporativ a'loqaning yagona portalida, Bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida habar berish uchun shakllantirilgan Bank aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan elektron pochталari orqali yuboriladi.

12.17. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 10 (o'n) kundan kam va 30 (o'ttiz) kundan ko'p etib belgilanishi mumkin emas.

12.18. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida 3 (uch) oyga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Bankning moliya yili tugatishidan keyin 90 (to'qson) kundan kechiktirmay aksiyadorlarning yillik

umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Bank Kuzatuv kengashiga uning son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli, bundan Kuzatuv kengashining mustaqil a'ziligiga nomzodlar ko'rsatish mustasno.

12.19. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Bank Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, yozma talab taqdim etilgan sanada Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi, shuningdek banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq Markaziy bank talabi asosida o'tkaziladi.

12.20. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishini talab qilayotgan aksiyadorlarga tegishli ovoz beruvchi aksiyalar ulushi bunday talabni ko'rsatish sanasida aniqlanadi.

12.21. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Aksiyador aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

12.22. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami qirq foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

12.23. Kvorum bo'lmaganligi sababli aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi yigirma kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reyestriga muvofiq aniqlanadi.

12.24. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada taqdim etiladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

12.25. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini tashkillashtirish va o'tkazish bilan bog'liq boshqa masalalar amaldagi qonunchilik bilan tartibga solinadi va Bankning "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi Nizom bilan belgilanadi.

13. BANK KUZATUV KENGASHI

13.1. Bankning Kuzatuv kengashi Bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, amaldagi qonunchilik va Bank Ustavi bilan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

Bank Kuzatuv kengashi boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman Bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgardir.

13.2. Bank Kuzatuv kengashi o'z ishini amaldagi qonunchilik, ushbu Ustav va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan Bankning "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiradi.

13.3. Bank Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

Bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Bank boshqaruvining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

Bank aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Bank aksiyadorlari reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

Bank Ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki Bankning yangi nashridagi Ustavini tasdiqlash masalalarini Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

Bankning ustav kapitalini ko'paytirish va Bank Ustaviga Bankning ustav kapitalini ko'paytirish hamda Bankning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilish;

aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qaror va emissiya risolasini tasdiqlash, shuningdek avval ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilish;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga nisbatan) narxini belgilash;

Bankning yillik biznes-rejasini tasdiqlash (shu jumladan transformatsiya masalalari bo'yicha loyiha ofisining xarajatlarini). Bunda Bankning kelgusi yilga kutilayotgan biznes-rejasi joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay tasdiqlanishi

Bank tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayiriboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida va korporativ obligatsiyalarni qaytarib sotib olish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

Bank tomonidan qarz majburiyatlarini (depozit (omonat) sertifikatlaridan tashqari) chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

Bank Boshqaruvini tuzish, Boshqaruv raisi va a'zolarini tayinlash, ularning vakolatlarini muddatidan avval tugatish;

Bank Boshqaruvini a'zolariga o'tkaziladigan tanlov reglamentini tasdiqlash, Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari lavozimlariga tanlov e'lon qilish va o'tkazish;

Bank Boshqaruviga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini va ularga kiritilayotgan o'zgartirishni ma'qullash;

korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

Bankning ichki audit xizmatini tashkil etish, uning xodimlarini tayinlash va ichki audit xizmati (departamenti) to'g'risidagi nizomni tasdiqlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish va ular asosida Bank Boshqaruvini tomonidan Bank strategiyasi va siyosatlariga rioya etilishini baholashdan o'tkazish;

Bankning Boshqaruvini faoliyatiga daxldor har qanday hujjatdan erkin foydalanish va Boshqaruvidan Bank Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun ularni olish. Olingan hujjatlardan Bank Kuzatuv kengashi va uning a'zolari faqat xizmat maqsadlarida foydalanishlari mumkin;

dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish (yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha Bank Kuzatuv kengashining vakilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun o'tkazilishi mumkin);

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Bankning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

Bankning zaxira fondi va boshqa fondlaridan foydalanish;

Bankning filiallarini tashkil etish hamda vakolatxonalarini ochish va tugatish;

Bankning shu'ba va tobe korxonalarini tashkil etish;

Bankning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzish;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va qonunchilikda belgilangan doirada mas'uliyat (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibini va shartlarini tasdiqlash (ushbu tartib Bankning veb-saytida oshkor etilishini ta'minlash);

Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat bo'lgan Strategiya va investitsiyalar, Audit, Tayinlovlar va haq to'lash, Tavakkalchiliklarni boshqarish, Komplaens, kumapsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitalarini, shuningdek zaruriyatga ko'ra boshqa qo'mitalarni tashkil qilish;

Bank xaridlarining yillik va choraklik reja-jadvallarini, shuningdek, import qilish rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatlarini xaridlarning maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish;

Bank asosiy faoliyatiga xos bo'lgan yangi ko'chmas mulk obyektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish;

Bank tomonidan mulkni begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmi, davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlarini (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda oldindan ko'rib chiqish;

qarzdorlik hisobiga mol-mulklarni bank balansiga qabul qilish va ularni realizatsiya qilish hamda hisobini yuritishni, jumladan sotish shakli va mexanizmini belgilash, shuningdek bu bilan bog'liq ichki hujjatlarni (qoidalarni) tasdiqlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

Bankni yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish;

Bankda transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, Bankning tashqi qarmlarini optimallashtirish, zamonaviy xarid tizimini joriy etish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil mablag'larni jalb etish;

Bankning strategik maqsadlarini, korporativ boshqaruv, kredit, investitsiya, emissiya, axborot, dividend, likvidlilik, hisob, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish va boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to'g'risida nazorat etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek vakolat doirasida boshqa ichki hujjatlarni (qoidalarni) tasdiqlash;

aktivlarni tasniflash asosida aktivlar bo'yicha ehtimoldagi zararlarga qarshi yaratiladigan zaxiralar shakllantirilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek Bankning kapital va umumiy zaxiralarining yetarli darajada saqlab turilishini ta'minlash;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish tartibini tasdiqlash;

Bankning moliyaviy holatini tiklash rejalarini tasdiqlash;

Bankning Boshqaruvi ustidan nazoratni amalga oshirish;

Bankning qabul qilingan biznes-rejasi bajarilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek har chorakda Bankning faoliyati natijalari to'g'risida Bank Boshqaruvining hisobotini eshitish;

Bank Boshqaruvi a'zolari tomonidan taqdim etilgan axborotni, takliflarni va tushuntirishlarni o'rganish, muhokama qilish hamda ular bo'yicha bahslashish;

Bank faoliyatini boshqarish tizimi samaradorligini, shu jumladan Bank Boshqaruvi prinsiplari monitoringini va ularni davriy baholashni amalga oshirish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli choralarni ko'rish;

bir yilda kamida bir marta amalga oshirilgan nazorat va tekshiruv faoliyati to'g'risida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga hisobot taqdim etish;

yillik moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar tizimining yaxlitligini ta'minlash;

Bankning uzoq muddatli moliyaviy manfaatlarini va Markaziy bank tomonidan kapitalga nisbatan belgilangan talablarni hisobga olgan holda prudensial talablarga rioya etilishini ta'minlash;

Bank o'ziga aloqador shaxslar bilan O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 44-moddasining talablarini hisobga olgan holda tuziladigan bitimlarni ma'qullash;

agar shaxs Bank bilan bitim tuzish bo'yicha shartnoma imzolanganidan keyin Bankka aloqador shaxsga aylansa, shaxs Bankka aloqador shaxsga aylangan kundan e'tiboran 30 (o'ttiz) kun ichida mazkur shartnomani ma'qullash yoki bekor qilish;

Bank Boshqaruvi, Bank ichki nazorat organlari, Bankda tashkil etilgan kollegial organlar faoliyatini muvofiqlashtirish, zarur bo'lganda, Bank rivojlanish rejasini ishlab chiqishni tashkil etish va unda belgilangan maqsadlarga erishish monitoringi uchun ekspertlarni jalb etish;

Bank tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish, joriy etish va muntazam baholanishi bo'yicha ishlarning qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq tarzda amalga oshirilishini muvofiqlashtirishni ta'minlash;

Bankning yillik moliyaviy hisobotlarini Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga muvofiq tarzda e'lon qilishga o'tish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarni muvofiqlashtirish;

Bankda korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlashni tashkil etish;

Bankda Korporativ boshqaruv Kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun Korporativ boshqaruv Qoidalari tavsiyalarini joriy etish yuzasidan nazorat qilish;

Bank xodimlariga, jumladan Bank Boshqaruviga ish haqi va unga bog'lanish uchun ta'limlangan to'lovlarni to'lash va rag'batlantirishni amalga oshirishni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni (qoidalarni) tasdiqlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

Bankning tashkiliy tuzilmasini, shuningdek unga kiritilayotgan o'zgartirishni ma'qullash;

Bank Boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI ni) belgilash va ularning har choraklik natijalarini tasdiqlash;

ushbu Ustav va amaldagi qonunchilikka muvofiq Bank Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni ham hal etish.

13.4. Bank Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Bank Boshqaruviga o‘tkazilishi mumkin emas.

13.5. Bank Kuzatuv kengashi mazkur Ustav va amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqa masalalarni ham hal etadi.

13.6. Bank Kuzatuv kengashining a‘zolari amaldagi qonunchilik va mazkur Ustavga asosan Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan 3 (uch) yil muddatga saylanadi. Bank Kuzatuv kengashi 9 (to‘qqiz) nafar a‘zodan iborat tarkibda saylanadi. Bunda, Kuzatuv kengashining mustaqil a‘zolari soni 4 (to‘rt) nafarni tashkil etadi.

13.7. Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

13.8. Bank Boshqaruvi a‘zolari va Boshqaruv raisi, Bankning shu‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar va ushbu jamiyatlar boshqaruv organlarining a‘zolari Bank Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

13.9. Bankda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar Bank Kuzatuv kengashining a‘zolari bo‘lishi mumkin emas.

13.10. Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga, shuningdek mustaqil a‘zolariga nisbatan qo‘yiladigan talablar Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan Bankning “Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi Nizomida belgilab qo‘yiladi.

13.11. Bank Kuzatuv kengashi a‘zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

13.12. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Bankning Kuzatuv kengashiga saylanishi kerak bo‘lgan mustaqil a‘zolar va boshqa a‘zolar soniga alohida ko‘paytiriladi hamda aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to‘liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o‘rtasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko‘p ovoz to‘plagan nomzodlar Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

13.13. Bank Kuzatuv kengashi raisi Bank Kuzatuv kengashi a‘zolari tomonidan ularning o‘zlari orasidan Bank Kuzatuv kengashi a‘zolari umumiy soniga nisbatan ko‘pchilik ovoz bilan saylanadi.

13.14. Bank Kuzatuv kengashi o‘z raisini jami a‘zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

13.15. Bank Kuzatuv kengashi raisi Kuzatuv kengashining ishini tashkil etadi, Bank Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi,

majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida raislik qiladi.

13.16. Bank Kuzatuv kengashi raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Bank Kuzatuv kengashi a'zolaridan biri bajarib turadi.

13.17. Bank Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kvorum, Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolar sonining 75 (yetmish besh) foizini tashkil qiladi.

13.18. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha Bank Kuzatuv kengashining qarori, agar qonunchilikda va ushbu Ustavda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

13.19. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining soni ushbu Ustavning 13.6-bandida nazarda tutilgan miqdorning 75 (yetmish besh) foizidan kam bo'lgan taqdirda, Bank Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek Bank Boshqaruv raisining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

13.20. Bank Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Bank Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega.

13.21. Bank Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Bank Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishga haqli emas.

13.22. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, Bank Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

13.23. Bank Kuzatuv kengashi qarorlari bilan Bank aksiyadorlari tanishtirilishi mumkin (tijorat siri bo'lgan qarorlardan tashqari). Bank aksiyadorlari Bankning qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hujjatlari bilan ham tanishishlari mumkin.

13.24. Bank Kuzatuv kengashining qarorlari sirtidan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Bank Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

13.25. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra, Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davrda haq to'lanishi va Kuzatuv kengashining a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'liq xarajatlari qoplanishi mumkin. Bunday haq va to'lovlarning miqdori Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilab qo'yiladi.

13.26. Bank Kuzatuv kengashining a'zolari, o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda Bank manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim.

13.27. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari Bank va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari uchun qonunchilikka va mazkur Ustavga muvofiq javobgar bo'ladilar.

13.28. Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Bank Kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

13.29. Bankning 1 (bir) foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari Bank Kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega.

13.30. Kuzatuv kengashining mustaqil a'ziligiga nomzodlar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ko'rib chiqishi uchun, qoida tariqasida, tanlov asosida ko'rsatiladi. Bunda, aksiyadorlar tomonidan ham tanlov asosida yoki "xed-xanter" ("headhunter") kompaniyalari orqali tanlab olingan nomzodlar Bank Kuzatuv kengashining mustaqil a'ziligiga ko'rsatish uchun Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritilishi mumkin.

13.31. Quyidagilar Bank Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

so'nggi 3 (uch) yil ichida Bankda va (yoki) Bankning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

Bank ovoz beruvchi aksiyalarining 5 (besh) yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) affillangan shaxslar orqali) aksiyador;

Bankning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijoz va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining 2 000 (ikki ming) baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

so'nggi 3 (uch) yil ichida Bankka va (yoki) Bankning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

ketma-ket 6 (olti) yil davomida Bankning Kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

Bank va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan Kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

Bankning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi 3 (uch) yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomondan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs;

Bank Aksiyadorlari umumiy yig'ilishining qarorlari bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan shaxs.

Bank Kuzatuv kengashi mustaqil a'zosining ushbu bandeda belgilangan talablarga muvofiqligi o'zgargan taqdirda, u Bankni va Kuzatuv kengashini bu haqda 2 (ikki) ish kuni ichida xabardor qilishi shart.

14. BOSHQARUV – BANKNING IJROIYA ORGANI (IJRO ETUVCHI ORGAN)

14.1. Bankning kundalik faoliyatiga rahbarlik ijroiya organ (ijro etuvchi organ) – Bank Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv faoliyatiga Bank Boshqaruv raisi rahbarlik qiladi.

Bank Boshqaruvining vakolatlari ijro etish uchun uchinchi shaxslarga o'tkazilishi mumkin emas, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

14.2. Bank Boshqaruvi 7 (yetti) nafar a'zodan iborat bo'lib, Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan masalalardan tashqari barcha masalalarni hal qilish vakolatiga ega.

14.3. Bank Boshqaruvi tarkibiga Boshqaruv raisi, uning o'rinbosarlari, Bosh buxgalter, shuningdek Bank faoliyatining muhim yo'nalishlarini ta'minlovchi boshqa mutaxassislar kirishi mumkin.

14.4. Bank Boshqaruvi Bankning kollegial ijro etuvchi organi hisoblanib, uning joriy faoliyatini boshqaradi.

Bank Boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bank Ustavi, Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlariga asosan hamda Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq Bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda Bankning faoliyati uchun javobgarlikni to'liq zimmasiga oladi.

14.5. Bank Boshqaruvi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Bank Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

14.6. Bankning Boshqaruv raisi va Boshqaruv raisi o'rinbosarlarini tayinlash, qoida tariqasida, chet ellik menejerlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov bo'yicha saralash asosida amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi qarori bilan tayinlanadi.

14.7. Bank Boshqaruv raisi va a'zolari amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda Bank Kuzatuv kengashi tomonidan Kuzatuv kengashi majlisida ishtirok etayotgan a'zolarining yoki Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan 3 (uch) yillik muddatga saylanadilar (tayinlanadilar) va ularning vakolatlari muddatidan ilgari tugatiladi.

Bunda, Boshqaruv raisi sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Boshqaruv raisi bo'lishi mumkin emas.

14.8. Bank Boshqaruvi raisi bilan tuziladigan shartnomani Bank nomidan Bank Kuzatuv kengashi raisi imzolaydi. Boshqaruv a'zolari bilan tuziladigan shartnomalarni Bank nomidan Bank Kuzatuv kengashi raisi yoki Bank Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs imzolaydi.

14.9. Mazkur Ustavga va amaldagi qonunchilikka muvofiq Bank xodimlari bilan mehnat shartnomasini Bank Boshqaruvi raisi, Bank hududiy bo'linmalari

xodimlari bilan Bank tomonidan berilgan ishonchnomaga asosan hududiy bo'linmalarining rahbarlari tuzadi.

14.10. Bank Boshqaruvi Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

14.11. Bank Boshqaruvi ushbu Ustav va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan Bankning "Boshqaruvi to'g'risida"gi Nizom asosida ish olib boradi.

14.12. Bank Boshqaruvining majlisi zarur hollarda, biroq bir oyda kamidan bir (bir) marta o'tkaziladi. Bank Boshqaruvi tomonidan Kuzatuv kengashi yoki Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritiladigan masalalar majburiy tartibda Boshqaruv majlisida oldindan muhokama etiladi. Boshqaruvning fikri haqida Kuzatuv kengashida va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Boshqaruv raisi yoki u tomonidan vakolat berilgan Boshqaruv a'zosi axborot beradi va himoya qiladi.

14.13. Bank Boshqaruvi uning kun tartibiga kiritilgan masalalarni, agar majlisda Boshqaruv a'zolarining 5 (besh) nafardan kam bo'lmagan a'zolari qatnashsa, hal qilishga haqli (kvorumga ega) bo'ladi.

14.14. Bank Boshqaruvi majlisida qarorlar majlisda qatnashayotgan Boshqaruv a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Boshqaruv majlisida masalalar hal etilayotganda Boshqaruvning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda Bank Boshqaruvi raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi. Mazkur Ustavning 14.17-bandi oltinchi xatboshisida ko'rsatilgan masala bo'yicha qaror majlisda ishtirok etayotgan Bank Boshqaruv a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

14.15. Bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilingan qarorga rozi bo'lmagan Boshqaruv a'zolari o'z fikrlarini Bank Kuzatuv kengashiga bildirishlari mumkin.

14.16. Boshqaruv majlisida bayonnoma yuritiladi. Bayonnoma majlisda ishtirok etayotgan Bank Boshqaruv a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi. Boshqaruv majlisining bayonnomasi Kuzatuv kengashi a'zolariga, shuningdek auditorlarga ularning talabiga ko'ra beriladi.

14.17. Bank Boshqaruvining vakolatlari va majburiyatlariga qo'yidagilari kiradi:

Bankning ichki hujjatlarini (qoidalarini) tasdiqlash, Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalardan mustasno;

Bank va uning xodimlari, shu'ba korxonalari, vakolatxonalari, filiallarning hududiy bo'linmalari va bank xizmatlari markazlari (ofislari) uchun majburiy bo'lgan qarorlar chiqarish;

Bankni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalarini ishlab chiqish, ularning bajarilishini va bajarilishini nazorat qilish;

mazkur Ustavga muvofiq Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan masalalarni oldindan ko'rib

chiqish hamda ular bo'yicha tegishli materiallar, takliflar va qarorlar loyihalarini tayyorlash.

o'z vakolati doirasida mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim tuzish (bitim tuzish masalasida Bank Boshqaruvi yakdilligiga erishilmagan hollarda bitim tuzish to'g'risidagi masala Bank Boshqaruvi qaroriga muvofiq Kuzatuv kengashiga hal etish uchun kiritilishi mumkin);

o'z vakolatiga tegishli ishlarning holati to'g'risidagi axborotni Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashiga belgilangan muddatda taqdim etish;

o'z vakolatlari doirasida Bankning samarali va barqaror ishlashini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bank ichki hujjatlariga (qoidalariga) rioya qilish;

mazkur Ustavning 4.7-bandida nazarda tutilgan qoidaga amal qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Administratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Markaziy bank, O'zbekiston Respublikasi Banklar assotsiatsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari federatsiyasining topshiriqlari va (yoki) murojaatlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining murojaatlari bo'yicha har bir topshiriq va (yoki) murojaat bo'yicha 100 (yuz) mln so'mgacha homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish;

Bankning strategik maqsadlarini, korporativ boshqaruv, kredit, investitsiya, emissiya, axborot, dividend, likvidlilik, hisob, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish va boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarililigini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshirish;

Bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan vakolatlarni va javobgarlikni Bank xodimlari o'rtasida o'z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta'minlash;

Bank xodimlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshish;

Bankning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajarishi, shuningdek Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashiga bajarilgan ishlar, Bankka nisbatan qo'llanilgan choralar hamda sanksiyalar to'g'risidagi hisobotni davriy ravishda taqdim etish;

"Bank aksiyador (ishtirokchi, ta'sischi) bo'lgan korxonalar va tashkilotlar boshqaruv organlarida Bank vakillarining ovoz berish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash;

Bankning obro'-e'tibor xatarlarini boshqarish;

Bank tomonidan depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish hamda depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va ularni muomalada bo'lish shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

Bank mulkini begonalashtirishni, uni sotish shakli va mexanizmini, davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlarini (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda oldindan Kuzatuv kengashi bilan kelishish;

Bank asosiy faoliyatiga xos bo'lgan yangi ko'chmas mulk obyektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanishni faqat Bank Kuzatuv kengashining tegishli qarori qabul qilinganda amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga va boshqa qonun osti hujjatlariga, Markaziy bank normativ-huquqiy hujjatlari va ko'rsatmalariga hamda Bank ichki hujjatlariga (qoidalariga) muvofiq boshqa vakolat va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

14.18. Bank Boshqaruv raisining vakolatlari va majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

o'zining vakolatlari doirasida Bankning ishiga rahbarlik qiladi;

Bank Kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi;

Bank nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, davlat muassasalari, barcha mulk shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarda uning manfaatlarini himoya qiladi;

Bank mijozlari shuningdek, boshqa tashkilot va korxonalar bilan bitimlar va shartnomalar (kontraktlar) tuzadi;

Bank nomidan hujjatlarni imzolaydi;

o'z vakolatlari doirasida Bankning mol-mulki va mablag'larini tasarruf etadi;

Bank shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta'minlaydi;

shartlarni tasdiqlaydi, Bank xodimlarini ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi, va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llaydi, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlaydi;

Banklarda vakillik va boshqa hisobvaraqlarni ochadi;

Bank nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni beradi;

Bank nomidan Bank Boshqaruv ofisi nomenklaturasiga kiruvchi xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzadi;

Bankning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

o'z vakolati doirasida Bankning ichki hujjatlarini (qoidalarini) tasdiqlaydi;

amaldagi qonunchilikka muvofiq, Bankda buxgalteriya hisobi va hisobotning tashkil etilishi, tegishli rasmiylashtirilganligi va ishonchliligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga

yuboriladigan Bank faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlaydi;

Bankning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni Bank Kuzatuv kengashi yoki Bank auditori talabiga ko'ra taqdim etadi;

davlat statistika hisoboti va buxgalteriya hisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlaydi;

Bank sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlaydi, agar bunday axborotni uchinchi shaxslarga berish uning vazifalari doirasiga kirmasa;

xizmat, tijorat va bank sirini tashkil etuvchi axborotning Bank xodimlari tomonidan saqlanishini ta'minlaydi;

Bankni malakali kadrlar bilan ta'minlaydi, Bank xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan oqilona foydalanish choralarini ko'radi;

Bank xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ular mehnatini muhofaza qilinishini ta'minlaydi;

Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida qatnashish, dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilinishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga va boshqa qonun osti hujjatlariga, Markaziy bank normativ-huquqiy hujjatlari va ko'rsatmalariga hamda Bank ichki hujjatlariga (qoidalariga) muvofiq boshqa vakolat va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

14.19. Bank Kuzatuv kengashi Bankning Boshqaruvi a'zolari bilan tuzilgan shartnomani, agar shartnoma tuzishda ular Bank Ustavini qo'pol tarzda buzishga yo'l qo'ygan bo'lsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Bankka zarar yetkazilgan bo'lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

14.20. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tayinlangan Boshqaruv raisining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, Kuzatuv kengashi qarori bilan belgilangan shaxs uning vazifalarini Bank aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda vaqtincha bajarib turishiga yo'l qo'yiladi.

14.21. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari Bank Boshqaruvi organlarida o'rindoshlik asosida ishlashga haqli emaslar.

14.22. Bank Boshqaruv raisi va a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda Bank manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim.

14.23. Bank Boshqaruv raisi va a'zolari o'zlarining lavozim majburiyatlarini halol, shuningdek Bank manfaatlari yo'lida amalga oshirishga majburdirlar.

14.24. Bank Boshqaruv raisi va a'zolari Bank va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari uchun qonunchilikka va mazkur Ustavga muvofiq javobgar bo'ladilar.

14.25. Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Bank Boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

14.26. Bank aksiyadorlar umumiy yig'ilishida aksiyadorlar vakili sifatida ishtirok etuvchi Boshqaruv raisi Bank Boshqaruvi raisi bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar bo'yicha ovoz berish huquqiga ega emas.

14.27. Bank Kuzatuv kengashi va Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan, shuningdek Bankning Ustavi va rivojlanish rejalarida belgilangan vazifalarning so'zsiz bajarilishi uchun Bank Boshqaruvi o'z vakolatiga kiruvchi masalalarni mustaqil hal etadi.

14.28. Bank Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari ular faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI ni) bajaradi va ularga muvofiq rag'batlantirish to'lovlarini oladi.

15. BANKNING MOLIYA-XO'JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

15.1. Ichki audit xizmati

15.1.1. Bankda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati Bankning tekshirilayotgan faoliyatidan va boshqaruvidan mustaqil bo'lib, u Bankning Kuzatuv kengashi va Audit qo'mitasiga bevosita bo'ysunadi. Ichki audit xizmati a'zolarining soni va shaxsiy tarkibi amaldagi qonunchilik bilan belgilangan tartibda tashkil etiladi.

15.1.2. Ichki audit xizmati Bank Boshqaruvi, Bosh ofisi, filiallari, hududiy bo'linmalari, bank xizmatlari markazlari (ofislari) va vakolatxonalarini tomonidan qonunchilikka, mazkur Ustavga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Bankni boshqarish yuzasidan qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Bank Boshqaruvi, Bosh ofisi, filiallari, hududiy bo'linmalari, bank xizmatlari markazlari (ofislari) va vakolatxonalarini ishini nazorat qiladi hamda baholaydi. Shuningdek ichki audit xizmati 50 (ellik) foizdan ziyod ulushi Bankka tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

15.1.3. Ichki audit xizmati faoliyati Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlagan Bankning "Ichki audit xizmati (Departamenti) to'g'risida"gi Nizom bilan belgilanadi.

15.2. Auditorlik tashkiloti

15.2.1. Auditorlik tashkiloti Bank bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda Bankning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshiradi va unga auditorlik xulosasi taqdim etadi.

15.2.2. Audit, xususan, kapitalning yetarliligini baholash, ssudalarni tasniflash, ssudalar bo'yicha zararlarni qoplash, tavakkalchilikni va likvidlikni

o'ldashni o'z ichiga oladi. Auditorlik tekshiruvi buxgalteriya hisobining muvofiq andozalariga muvofiq ravishda o'tkazilishi lozim.

15.2.3. Auditorlik tashkiloti Bankning moliyaviy hisoboti va moliyaga boshqa axborotlar haqida noto'g'ri yakun bayon etilgan auditorlik tuzganlik oqibatida yetkazilgan zarar uchun Bank oldida javobgar bo'ladi.

16. KORPORATIV MASLAHATCHI

16.1. Bankda korporativ maslahatchi lavozimi joriy etiladi.

16.2. Korporativ maslahatchi Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanadi va Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'ladi.

16.3. Korporativ maslahatchi, Bank va uning aksiyadorlari xamda investorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, Bank faoliyatida korporativ qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaradi.

16.4. Korporativ maslahatchining ish faoliyati va batafsil vazifalari Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan tegishli nizom bilan belgilanadi.

17. BANK FILIALLARI VA BOSHQA ALOHIDA BO'LINMALARI, ULARNI TASHKIL ETISH TARTIBI

17.1. Bank filiali Bankning yuridik shaxs bo'lmagan, Bank nomidan bank faoliyatini amalga oshiruvchi va Bank tomonidan o'ziga berilgan vakolatlar doirasida harakat qiluvchi alohida bo'linmasi hisoblanadi.

17.2. Bank qonunchilik va Bank Ustavida belgilangan doirada va tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida filiallar va bank xizmatlari markazlari (ofislari) tashkil etishi hamda ularga vakolatlar berishi mumkin.

17.3. Bank Markaziy Bankning ruxsati bilan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida filiallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishi hamda ularga qonunchilik va Bank Ustavida belgilangan doirada va tartibda vakolatlar berishi mumkin.

17.4. Filialga Bank mol-mulki birlashtiriladi va "filial" so'zi qo'shimcha qilingan holda Bankning nomi bilan to'liq mos bo'lgan nomga ega bo'ladi.

17.5. Filial o'z faoliyatini Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan filial to'g'risidagi nizom va Bankka berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Filial rahbari Bank tomonidan berilgan ishonchnomaga asosan faoliyat yuritadi.

17.6. Bank filiallari qonunchilikka muvofiq Bank Kuzatuv kengashi qaroriga binoan ochiladi/tugatiladi.

Bank filiallarini ochganlik/tugatganlik to'g'risida Markaziy bankka qonunchilikda belgilangan tartibda xabarnoma yuboriladi.

17.7. Bank filiallari rahbarlari va uning o'rinbosarlari hamda bosh buxgalterlari Bank Boshqaruvi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Bank Boshqaruv raisi Bank filiallari rahbarlari va uning o'rinbosarlari hamda bosh buxgalterlari bilan Bank nomidan mehnat shartnomasini tuzadi.

17.8. Bank mijozlarga tezkor xizmat ko'rsatish maqsadida O'zbekiston Respublikasida bank xizmatlari markazlari (ofislari)ni tashkil qiladi.

17.9. Bank xizmatlari markazlari (ofislari) Bank yoki Bank filiali binosidan tashqarisida joylashgan bankning tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi va Bank yoki uning filiali bilan yagona bo'lgan Bank (filial) balansi va kodiga ega bo'ladi.

17.10. Bank xizmatlari markazi (ofisi) "minibank", "chakana xizmatlar markazi", "bank xizmatlari markazi", "bank xizmatlari ofisi" va boshqa so'z va so'z birikmalari qo'llanilgan holda turli xil nomlanishi mumkin.

17.11. Bank xizmatlari markazlari (ofislari) qonunchilikka muvofiq Bank Boshqaruvi qaroriga binoan ochiladi/tugatiladi.

Bank xizmatlari markazlarini (ofislarini) ochganlik/tugatganlik to'g'risida Markaziy bankka qonunchilikda belgilangan tartibda xabarnoma yuboriladi.

17.12. Bank xizmatlari markazi (ofisi) o'z faoliyatini Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan bank xizmatlari markazi (ofisi) to'g'risidagi nizom va Bankka berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Bank xizmatlari markazi (ofisi) rahbari Bank tomonidan berilgan ishonchnomaga asosan faoliyat yuritadi.

17.13. Bank xizmatlari markazlari (ofislari) rahbarlari va buxgalteriya hisobini yuritishga mas'ul xodimlari Bank Boshqaruv raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

18. BANKNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

18.1. Bankni qayta tashkil etish (jumladan: qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish) va tugatish Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori asosida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

18.2. Bankni qayta tashkil etish O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek Markaziy bankning tegishli normativ-huquqiy hujjatlari va ko'rsatmalariga muvofiq amalga oshiriladi.

18.3. Bankni qayta tashkil etish Bank Aksiyadorlari umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shakllarida Markaziy bankdan ruxsatnoma olgan holda amalga oshiriladi.

18.4. Bank Markaziy bankning talabiga ko'ra ham qayta tashkil etilishi mumkin.

18.5. Bankning tugatilishi huquq va majburiyatlarni huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tkazmagan holda Bank faoliyatini tugatishga sabab bo'ladi.

18.6. Bank quyidagi hollarda tugatiladi:
ixtiyoriy ravishda, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ravishda qaroriga asosan;

Markaziy bank litsenziyani chaqirib olganida;

bankrot deb e'lon qilinganida;

amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa sabablarga asosan.

18.7. Bankni tugatish O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek Markaziy bankning tegishli normativ-huquqiy hujjatlari va ko'rsatmalariga muvofiq amalga oshiriladi.

18.8. Bankni qayta tashkil etish yoki tugatish haqidagi xabar qonunchilikda belgilangan tartibda e'lon qilinadi.

19. MIJOZLARNING MANFAATLARINI TA'MINLASH

19.1. Xizmat xususiyatiga ko'ra, Bank ma'lumotlaridan xabardor bo'lgan shaxslar mijozlarning operatsiyalari, hisobvaraqlari va omonatlariga doir ma'lumotlarning oshkor etilishi uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

19.2. Bank o'z mijozlari hamda vakillarining operatsiyalari, hisobvaraqlari va omonatlariga doir ma'lumotlar sir saqlanishini kafolatlaydi. Bankning barcha xodimlari va aksiyadorlari Bank, uning mijozlari hamda vakillarining operatsiyalari, hisobvaraqlari va omonatlariga doir ma'lumotlarni sir saqlashlari shart. Mijozlarning Bankda saqlangan pul mablag'lari va boshqa mulkiga, shu jumladan fuqarolarning omonatlariga nisbatan faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha va tartibda hibsga olish, hamda undirib olish choralari qo'llanilishi mumkin.

19.3. Yuridik va jismoniy shaxslarning hisobvaraqlariga doir operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar hisobvaraq egalari, ularning qonuniy vakillari va merosxo'rlariga, sudga, sud ijrochisiga, prokuratura, tergov va surishtiruv organlariga, shuningdek davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi.

19.4. Bank unga saqlash uchun berilgan, omonatlarga qo'yilgan va boshqa operatsiyalar bo'yicha pul va boshqa mablag'lar, qimmatliklarni, hamda mulkning but saqlanishini kafolatlaydi.

19.5. Bank Markaziy bank belgilagan me'yorga muvofiq o'z balans tuzilmasini tartibga solish yo'li bilan zimmasidagi majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq bajarish uchun doimiy tayyor holatda bo'ladi.

19.6. Bank jalb qilingan pul mablag'larining bir qismini Markaziy bank belgilagan me'yoriy ajratmalariga muvofiq majburiy zaxiralar fondiga deponentlaydi.

20. USTAVGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

20.1. Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va o'z vakolatlari doirasida Bank Kuzatuv kengashi tomonidan mazkur Ustavga kiritiladigan barcha o'zgartishlar va qo'shimchalar Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi.

20.2. Bank Ustaviga kiritilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar yoki Bankning yangi tahrirdagi Ustavi uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, amaldagi qonunchilikda belgilangan hollarda esa Markaziy bank xabardor etilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

20.3. Agar mazkur Ustavni biron bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.

20.4. Agar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida mazkur Ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi qoidalari qo'llaniladi.

20.5. Bankning ushbu Ustavi Markaziy bankda ro'yxatdan o'tkazilishi munosabati bilan:

Bank Aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishining 2022-yil 27-iyuldagi 4-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va Markaziy bankda 2022-yil 17-avgustda 37-raqam bilan ro'yxatga olingan Bank Ustavi;

Bank Aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishining 2023-yil 27-iyundagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va Markaziy bankda 2023-yil 21-iyulda 37/1-raqam bilan ro'yxatga olingan Bank Ustaviga kiritilgan o'zgartishlar va qo'shimcha;

Bank Kuzatuv kengashi majlisining 2023-yil 3-noyabrdagi 38-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va Markaziy bankda 2023-yil 7-dekabrda 37/2-raqam bilan ro'yxatga olingan Bank Ustaviga kiritilgan o'zgartishlar;

Bank Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining 2023-yil 28-dekabrda 2-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va Markaziy bankda 2024-yil 27-fevralda 37/3-raqam bilan ro'yxatga olingan Bank Ustaviga kiritilgan o'zgartishlar;

Bank Aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishining 2024-yil 27-iyundagi 2-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va Markaziy bankda 2024-yil 6-avgustda 37/4-raqam bilan ro'yxatga olingan Bank Ustaviga kiritilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar;

Bank Kuzatuv kengashi majlisining 2025-yil 10-fevraldagi 4-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan va Markaziy bankda 2025-yil 7-martda 37/5-raqam bilan ro'yxatga olingan Bank Ustaviga kiritilgan o'zgartishlar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

Boshqaruv raisi v.b

O.A. Butayev

Tikilgan va raqamlangan

64 (Oltmish yetti)

varaqdan iborat

2025-yil 15-avgust

Imzo

